

## KASB – HUNAR MAKTABLARIDA YO‘L HARAKATI XAVFSIZLIGI FANINI AHAMIYATI

*Xakimov Rahmatullo Mashrabovich*

*Farg‘ona viloyati Yozyovon tumani*

*Kasb – hunar maktabi yo‘l harakati qoidalarini va  
xavfsizligi fani o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kasb – hunar maktablarida yo‘l harakati qoidalarini va xavfsizligi fanining o‘qitishning ahamiyati, dolzarb masalalari haqida yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** yo‘l harakati qoidalarini, xavfsizlik, hodisalar, ta‘riflar.

Kasb hunar maktablarida yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlashni nazariy o‘rganish ob‘ektlari qatorida “yo‘l harakati xavfsizligi” tushunchasini o‘rganish markaziy o‘rinni egallaydi. “Yo‘l harakati xavfsizligi” tushunchasining turli xil ta‘riflari borligiga uning mazmunida bo‘ladigan doimiy o‘zgarishlar bilan izohlanadi. Bu har qanday hodisaning tabiiy holatidir. Yo‘l harakati xavfsizligining mazmuni davlat rivojlanishining o‘ziga xos tarixiy shart-sharoitlari, uning nazariy tushunchasi va qonunchilikni tartibga solish holati bilan ham belgilanadi. Shunday qilib, 90-yillarda siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar oqibatida XX asrning oxirlarida shakllangan ushbu kategoriyaning izohi, sovet davridagi tushunchadan mutlaqo farq qiladi. Shu nuqtai nazardan ta‘kidlashimiz lozimki, ushbu tushunchaning tadqiqi ikkita asosiy “yo‘l harakati” va “xavfsizlik” tushunchalarning tahliliga tayanib, ularning mazmun va mohiyatini alohida-alohida o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Yo‘l harakatini tasavvur etgan xolda G.I. Klinkovshteyn va M.B. Afanasevlar buning tagida piyodalar va har xil turdagi va mexanik bo‘lmagan transport vositalarining umumiy harakatini o‘zida mujassam etgan mavjud murakkab dinamik tizimni tushunishgan<sup>1</sup>. I.K. Shaxrimanyan tomonidan bildirilgan fikr ham e‘tiborga molik bo‘lib, unda yo‘l harakatining ijtimoiy-huquqiy tomoni o‘z aksini topgan: “Yo‘l harakati –bu odamlar va yuklarning transport vositalari yordamida shuningdek, odamlarning yo‘llarda transport vositalarsiz, davlat organlari tomonidan tartibga solingan va maxsus huquqiy normalar bilan chegaralangan yo‘l harakati jarayoniga to‘sqinlik qiluvchi real holatda xavfli vaziyat sharoiti vujudga kelishi mumkin bo‘lgan harakatlanish hisoblanadi”<sup>2</sup>. Muallif ushbu ta‘rifida eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazarlarni ajratib ko‘rsatgan. Ko‘rinib, turibdiki, bu ta‘riflarning bitta kamchiligi – ular yo‘l harakatining faqat tashqi ijtimoiy va texnik taraflarini aks ettirib, yo‘l-transport xodisasi sabablari qilib ko‘rsata oladigan mavjud omillarni asoslab

<sup>1</sup> Лукьянов В.В. Безопасность дорожного движения. – М., 1983. – С. 12.

<sup>2</sup> Шахриманьян И.К. Указ. соч. – С. 36.

bermaydi. Shu sababli, R.I. Denisov tomonidan berilgan yo‘l harakati ta‘rifi, ya‘ni insonning yo‘l harakatidagi roli, yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlashga bo‘lgan munosabati o‘rinlidir. U yo‘l harakatini huquqiy tartibga solish ob‘ekti sifatida o‘rganib, yo‘llarda transport vositalari yoki vositalarsiz, shuningdek, bu harakatlarning boshqaruv sharoitlari jarayonida, yo‘lovchi va yuklarni tashish bilan bog‘liq bo‘lgan zaruriyatni ijtimoiy munosabatlar yig‘indisi sifatida ko‘rilishini taklif etdi. Biroq, oqibatda bunday yondashuv o‘z rivojiga ega bo‘lmadi, chunki yo‘l harakatini piyodalar va avtotransport vositalari egalarini hisobga olmagan holda faqatgina transport vositalarining o‘zini tadqiq etishga qaratilgan edi.

Yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlashda barcha yo‘l harakati qatnashchilarining intizomiy xatti-harakatlarini ta‘minlovchi yo‘l harakati normalari va qoidalarini buzganlik uchun ma‘muriy majburlov chorasi, intizomiy, fuqaroviy va jinoiy javobgarlik kabi davlatning majburlov choralarini huquqiy tartibga solish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash muammosini hal etish “yo‘l harakati xavfsizligi”, “jamoat tartibi”, “jamoat xavfsizligi” tushunchalarni talqin qilishga qaratilgan ko‘plab ilmiy yondashuvlar bilan bog‘liq.

Yo‘l harakati davlat iqtisodiyotining o‘sishi, tarmoqlarining, avtotransport turargohlarining texnik jihozlanganligi huquqiy tartibot holatiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadigan ijtimoiy omillardan biri sifatida o‘zini namoyon etadi. Shu munosabat bilan ushbu munosabatlarni ma‘muriy-huquqiy tartibga solish mexanizmlarini tahlil etish zarur. Shu maqsadda I. I. Veremeenko tartibga solishning paydo bo‘lish o‘rni, mohiyati va maqsadlari kabi sifatlardan foydalanish zaruriyatini asoslab berdi. V.V.

Lukyanov tomonidan ma‘muriy-huquqiy adabiyotda “yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlamoq” to‘g‘risidagi nuqtai nazari – bu avtomobillashtirishni rivojlantirish sharoitida yo‘l-transport hodisalarning, vafot etganlarning va jarohat olganlarning umumi sonini kamaytirishga erishishdir. Bu esa o‘z navbatida “yo‘l harakati xavfsizligi” tushunchasining mohiyatini insonlar hayoti va sog‘lig‘i, mulklariga zarar yetkazish natijasining asosiy ob‘ekti sifatida aniqlash zaruriyati borligini ko‘rsatib berdi<sup>3</sup>. Shunday qilib, yo‘l harakati qatnashchilariga nisbatan xavfsizlik tushunchasi ularning konstitusion huquqlari, sog‘liqni saqlash va xavfsiz mehnat sharoitlari bilan bog‘liq. Yuqorida ta‘kidlab o‘tilganidek, yo‘l harakati – bu insonlar, shuningdek, predmetlari, vositalari va mehnat mahsulotlarining harakatlanishga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyojini qondirish usullaridan biridir. Aks holda, haydovchi o‘ziing transport ehtiyojlarini qondira olmaydi va harakatlanish manfaatlarini amalga oshira olmaydi. Binobarin, xavfsizlik tushunchasining mohiyatida muhim hayotiy manfaatlarining himoyalanganlik holati sifatida faqat o‘z hayoti va sog‘lig‘i saqlashnigina emas, balki

---

<sup>3</sup> Лукьянов В.В. Состав и квалификация дорожно-транспортных преступлений и административных правонарушений. — С. 6.

harakatlanishda o'zining ehtiyojlarini amalga oshirishni ham nazarda tutadi. Yo'l harakati masshtablarini hisobga olgan holda ushbu manfaatlar himoyasi ijtimoiy va davlat ahamiyatiga molik masaladir.

Ushbu xususiyatlardan foydalanish xavfsizlik darajasi bo'yicha baholash mezonlarini o'zgartirish zarurligini ko'rsatadi. Transport vositasi boshqaruvida nosozliklarga olib keluvchi xolatlarni, shuningdek, transport vositalari, yo'lovchi va manbalarning harakatlanishi uchun texnologik zarur tezlik, moddiy resurslarning sarflanishini kamaytirish kabi unsurlarni hisobga olish zarur.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 11 dekabrda 472-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Yo'l harakati qoidalari"ning 2-bandida tahlil qilinayotgan tushunchaga "yo'l harakati xavfsizligi – yo'l harakati qatnashchilarining yo'l-transport hodisalari va ularning oqibatlaridan himoyalanganlik darajasini aks ettiruvchi yo'l harakati holati" deb ta'rif berilgan<sup>4</sup>. Shuningdek, 2015 yil 24 dekabrda 370-son qarori bilan tasdiqlangan

"Yo'l harakati qoidalari"ning 6-bandida ham "yo'l harakati xavfsizligi" tushunchasiga yuqoridagi ta'rif aynan bayon etilgan. Ya'ni unga ko'ra "yo'l harakati xavfsizligi – yo'l harakati qatnashchilarining yo'l-transport hodisalari va ularning oqibatlaridan himoyalanganlik darajasini aks ettiruvchi yo'l harakati holati" hisoblanadi.

Ko'rinib turibdiki, "yo'l harakati xavfsizligi" hamda "yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash" tushunchalarining huquqiy ta'riflari turli davrlarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarda o'zgarishsiz bayon etilgan. Biz buning sababini mazkur tushunchalarning mukammal ta'rifi ishlab chiqilganligi emas, aksincha ushbu tushunchalari umumiy mazmun bilan ifodalanganligi bilan izohlaymiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021 yil 29 noyabrda PF-27-son Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasida "yo'l harakati xavfsizligi" tushunchasining mazmuniga ta'sir qiluvchi bir qator normalar joy oldi. Xususan, "yo'l harakati xavfsizligi" tushunchasi "jamoat xavfsizligi" tushunchasining tarkibiy qismi sifatida tushunila boshlandi. Xususan, "jamoat xavfsizligi" tushunchasiga "jamiyatning qonunga xilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolar, favqulodda vaziyatlar va boshqa tahdidlardan himoyalanganlik holati bo'lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi hamda insonning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarilishini ta'minlaydi" deb ta'rif berilgan. Endilikda

---

<sup>4</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2000 йил 11 декабрдаги "Йўл ҳаракати қоидаларини тасдиқлаш тўғрисида" 472-сон қарори // <https://www.lex.uz/acts/393128>. <sup>9</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2015 йил 24 декабрдаги "Йўл ҳаракати қоидаларини тасдиқлаш тўғрисида" 370-сон қарори // <https://www.lex.uz/acts/2850459>.

“jamoat xavfsizligi” tushunchasi “jamoat tartibini saqlash”, “huquqbuzarliklar profilaktikasi”, “yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash” va “probatsiya faoliyati” tushunchalari uyg‘unligida tushunila boshlandi. Bu bilan “yo‘l harakati xavfsizligi” tushunchasi mustaqil bo‘lmagan tushuncha bo‘lib qolmaydi. Aksincha uning mazmuni yanada aniqlashdi. Zero “yo‘l harakati xavfsizligi” albatta “jamoat xavfsizligi”ni ta‘minlashga xizmat qiladi. Shunday ekan bu tushunchani “jamoat xavfsizligi”dan ayro tushunish mumkin emas. Bundan tashqari, “yo‘l harakati xavfsizligi” tushunchasi “jamoat tartibi”, “huquqbuzarliklar profilaktikasi”, va “probatsiya” tushunchalari bilan bir-birini to‘ldiradi hamda butunning qismlari hisoblanadi.

### **XULOSA**

Shunday qilib, yuqoridagi tahlillar asosida “yo‘l harakati xavfsizligi” tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta‘rifini berish mumkin: “Yo‘l harakati xavfsizligi – yo‘l harakati xavfsizligi – jamoat xavfsizligini tarkibiy qismi bo‘lib yo‘l harakati bilan bog‘liq bo‘lgan xavflardan himoyalanganlik darajasini aks ettiruvchi yo‘l harakati holati”.

### **REFERENCES**

1. Амбарцумян В.В. Проблемы обеспечения безопасности дорожного движения: дис.... д-ра юрид. наук.- Ереван, 1980;
2. Игнатов Л.И. Организационные основы деятельности органов внутренних дел по обеспечению безопасности дорожного движения: учебное пособие. - М., 1991;
3. Ротенберг В.В. Основа надежности системы «водитель-автомобиль-дорога — среда». - М., 1986.